

SHAYBONIYLAR DAVRI MANBASHUNOSLIGI VA TARIXSHUNOSLIGI (TOSHKENT MASALASIDA)

Kimsanova Ruxshona Xayrulla qizi

Farg’ona davlat universiteti

Tarix fakulteti 3-kurs talabasi

[*RushanaXayrullayevna@gmail.com*](mailto:RushanaXayrullayevna@gmail.com)

(Tel: +998 93 855 10 05)

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.21131682>

Annotatsiya: Ushbu maqolada Shayboniylar dariga oid bo’lgan manbalar ularning tarixdagi ahamiyati hamda so’ngi davr tarixshunoslarining tatqiqotlari haqida so’z boradi. Biroq, ko’proq urg’u Toshkentga oid manba va tatqiqotlarga yo’naltirilgan.

Kalit so’zlar: Manbashunoslik, tarixshunoslik, Shayboniylar, Toshkent, Bobornoma, Badoye’ ul- vaqoye’, Abdullanoma, Tarixi Rashidiy, Akbarnoma, Muzakkiri – ahbob, Tarix-i olamoro-yi Abbosiy, Ahsan at-tavorix, Shayboniynoma.

Abstract: This article discusses the sources related to the Shaybanids, their significance in historical studies, and the research conducted by modern historiographers. However, special emphasis is placed on sources and scholarly works concerning Tashkent.

Keywords: Source studies, historiography, Shaybanids, Tashkent, Boburnoma, Badoye’ ul-vaqoye’, Abdullanoma, Tarikh-i Rashidi, Akbarnama, Muzakkir al-ahbab, Tarikh-i Alam-ara-yi Abbasi, Ahsan al-tawarikh, Shaybani-nama.

Аннотация: В данной статье рассматриваются источники, связанные с Шейбанидами, их значение в исторических исследованиях, а также работы современных историографов. Однако основное внимание уделяется источникам и исследованиям, связанным с Ташкентом.

Ключевые слова: источниковедение, историография, Шейбаниды, Ташкент, Бобурнома, Бадаиу’ аль-вакаи’, Абдулланом, Тарих-и Рашиди, Акбарнома, Музакир аль-ахбаб, Тарих-и алам-ара-йи Аббаси, Ахсан ат-таварих, Шейбани-нома.

XVI asr boshlarida Movarounnahr hududida Shayboniylar sulolasining hokimiyatga kelishi mintaqaning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotida muhim o’zgarishlarga sabab bo’ldi. Ushbu davr tarixini ilmiy asosda o’rganishda yozma manbalar alohida ahamiyat kasb etadi. Shayboniylar davriga oid manbalar mazmuni, mualliflik mansubligi va tarixiy ahamiyatiga ko’ra rang-barang bo’lib, ular orqali davrning ichki siyosati, boshqaruv tizimi, madaniy muhit va alohida shaharlar, jumladan Toshkent tarixini yoritish imkoniyati mavjud.

Tarixda har qanday masalani aniq tarixiy hujjatlarsiz, manbalarsiz, chuqur va atroflicha o’rganib bo’lmaydi. Bu borada medievistlar (o’rta asr tarixini o’rganuvchi mutaxassislar) ma’lum qiyinchiliklarga duch keladilar, chunki ilmiy tadqiqot olib borish

uchun zarur boʻlgan maʼlumotlar oʻtmishda turli tillarda yozilgan qoʻlyozma asarlarda mujassamlashgan boʻlib, ularni toʻplash, solishtirish, tahlil qilish va ilmiy xulosa chiqarish kerak boʻladi.

Bugungi kunda mavjud yozma asarlarning hammasi ham ilmiy tasnif etilgan va maxsus kataloglarda chop qilingan, deya olmaymiz. Sharq qoʻlyozmalarini tadqiq etish institutining tashkil etilishi (1943-yil 3-noyabr) nafaqat qoʻlyozma va toshbosma asarlarni saqlash, balki ularni chuqur ilmiy tadqiq etish ishiga yoʻl ochib berdi. Oʻzbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti qoʻlyozmalar fondi nafaqat mamlakat, shu bilan birga butun dunyodagi yirik fondlardan biridir. Ushbu institutda Sharq (arab, fors va turk) tillaridagi 18 ming jildga yaqin qoʻlyozma asarlar, 18 ming jildidan koʻproq toshbosma asarlar hamda 3500 dan ziyod akt va hujjatlar saqlanmoqda. Ming yillik tarixga ega boʻlgan qoʻlyozma asarlar, shubhasiz, Markaziy Osiyo xalqlarining aql-zakovati oʻzida aks ettirgan noyob durdonalardir.

Shayboniylar davrini oʻrganishda eng muhim manbalardan biri - Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asaridir. Asar muallifi temuriy hukmdor boʻlishiga qaramay, Shayboniylar bilan bevosita siyosiy va harbiy munosabatlarda boʻlgan. Shu sababli “Boburnoma”da Shayboniyxon va uning atrofidagi siyosiy jarayonlar haqida muhim va ishonchli maʼlumotlar uchraydi. Asarning eng foydali jihati shundaki, unda nafaqat siyosiy voqealar, balki shaharlar hayoti, aholi tarkibi, xoʻjalik, savdo, sugʻorish tizimi va geografik tavsiflar batafsil berilgan. Toshkent tarixi bilan bogʻliq jihatlari esa “Boburnoma”da Toshkent shahri strategik va savdo markazi sifatida tilga olinadi. Bobur Toshkentning geografik joylashuvi, suv manbalari, bogʻlari va aholisi haqida maʼlumot beradi. Shuningdek, Toshkentning Shayboniylar davrida harbiy-siyosiy ahamiyatga ega boʻlgan shahar ekanligi asarda yaqqol koʻrinadi.

XVI asr yozma manbalari orasida Zayniddin Vosifiyning “Badoe’ ul-vaqoe” asari alohida oʻrin tutadi. Asar muallifi Tojik yozuvchisi Zaynuddin Mahmud ibn Abduljalil Vosifiy (1485- 1566) Hirotda tugʻilgan. 1502-1507-yillarda u Sulton Husayn Boyqaroning farzandlaridan biri – Faridun Husayn saroyida kitobdor lavozimida xizmat qildi. 1507-1511-yillarda Shohrux madrasasida taniqli ilohiyotshunos Imomuddin Ibrohim qoʻlida tarbiya oldi. Hokimiyat Safaviylar qoʻliga oʻtgandan soʻng (1511), Xurosonda sunniy ulamolarni taʼqib etish boshlandi. Shu bois Vosifiy Movarounnahrda keldi va hayotining oxirigacha shu yerda yashadi. U Buxoro, Samarqand, Yassa, Sabron, Shohruxiya va

Toshkent shaharlarida yashab, mudarris va imom lavozimlarida xizmat qildi. Keyinchalik, Suyunchxo‘jaxonning kichik o‘g‘li Navro‘z Ahmadxonning tarbiyachisi, Shohruhiyada Keldimuhammad huzurida qoziaskar vazifalarini ado etdi. Vosifiy Toshkentda vafot etdi va Shayx Xovand Tahur mozorida dafn etildi. Vosifiy mashhur “Badoye’ ul-vaqoye” (“Badiiy voqealar”) nomli asar muallifidir. Ushbu memuar tipidagi asarda muallif o‘zi ko‘rgan va boshidan o‘tkazgan 1512-1532-yillar voqealarini tasvirlagan. Taniqli yozuvchi va olim Sadriddin Ayniyning ta’kidlashicha, Vosifiyning asari nafaqat o‘sha davr ilmiy va adabiy muhitini aniq aks ettiradi, balki XV asr oxiri – XVI asr boshlarida ro‘y bergan tarixiy voqealarni ham to‘g‘ri ifoda etadi. Vosifiy o‘z davrining ilmiy va madaniy hayotini ichidan bilgan shaxs sifatida qimmatli ma’lumotlar qoldirgan. Asarning eng muhim jihati - unda XVI asrning birinchi yarmidagi shahar madaniyati, hunarmandchilik, san’at va musiqiy hayot keng yoritilgan. Bu asar tarixiy voqealarni rasmiy uslubda emas, balki hayotiy lavhalar orqali tasvirlagani bilan qimmatlidir. Ayniqsa bugungi kunda ijtimoiy hayotni o‘rganishga bo‘lgan qiziqish tufayli ham ushbu asar qadri yanada yuqorilamoqda deb hisoblanadi.

Vosifiy Toshkentni madaniy hayot rivojlangan markazlardan biri sifatida tilga oladi. Asarda Toshkentda yashagan san’atkorlar, hunarmandlar va ayrim davlat arboblari haqida bilvosita ma’lumotlar uchraydi. Bu esa Toshkentning Shayboniylar davrida faqat harbiy emas, balki madaniy markaz bo‘lganini ko‘rsatadi.

Shayboniylar davriga oid eng muhim tarixiy asarlardan yana biri — Muhammad Haydarning “Tarixi Rashidiy” asaridir. Muallif Mirzo Muhammad Haydar Dug‘lat bo‘lib, u siyosiy voqealar ichida bevosita ishtirok etgan tarixchi sifatida tanilgan. Mirzo Haydar (1499–1551) Muhammad Husaynning o‘g‘li, onasi Xub Nigorxonim Yunusxonning kichik qizi, Boburning onasi Qutlug‘ Nigorxonning singlisi edi. 1508 - 1509 - yillarda Shayboniyni buyrug‘i bilan otasi qatl qilingach, Muhammad Haydar Buxorodan Badaxshonga olib kelingan. So‘ngra 1509 - yilda Bobur saroyiga keltirildi va uning xizmatida 1512-yilgacha qoldi. “Tarixi Rashidiy” ikki qismdan iborat bo‘lib, birinchi qismida Mo‘g‘uliston xalqlarining tarixi Tug‘luq Temur (XIV asr) davridan Abdurashidxonning taxtga o‘tirgan (XVI asr) davrigacha yoritilgan. ikkinchi qismi muallifning shaxsiy xotiralari asosida yozilgan. Asarda Markaziy Osiyoning XIV-XV asrlardagi ijtimoiy-siyosiy hayotiga oid qimmatli ma’lumotlar keltirilgan. “Tarixi Rashidiy” qo‘lyozmalari Sankt-Peterburg, Toshkent va boshqa xorijiy mamlakatlar

kutubxonalarida saqlanadi. Asarning ahamiyati shundaki, avvalo u memuar asar bo‘lib, unda Shayboniylar, temuriylar va mog‘ul hukmdorlari o‘rtasidagi siyosiy munosabatlarni qiyosiy tarzda yoritadi. Bundan tashqari “Tarixi Rashidiy”da Toshkent va unga tutash hududlar XVI asr boshlaridagi siyosiy kurashlar kontekstida tilga olinadi. Asarda Toshkentning Buhoro kabi Movarounnahr va Sharqiy Turkiston o‘rtasidagi muhim strategik hudud ekanligi ko‘rinadi.

Shayboniylar davlatining siyosiy va madaniy hayoti Hasanxoja Nisoriy (1516-1597) ning “Muzakkiri- ahbob” (“Do‘stlar zikri”) asarida o‘z aksini topgan. Nisoriy Buxoroda tug‘ilib, shu yerda madrasada tahsil oldi. 1533-1543-yillarda, otasi Balxda shayxulislom lavozimida xizmat qilganda, bu yerdagi Kamoluddin Qo‘noq madrasasida mudarrislik qildi. Keyinchalik u Shayboniylar saroyiga xizmatga da‘vat etildi. Hasanxoja Nisoriy dastlab Abdulazizxon (1545 - 1550), so‘ngra Miyonqol hokimlari Rustam sulton (1550 - 1554) va Abdulquddus sulton (1554 - 1566) davrida sadr (vaqf boshqaruvchisi) lavozimida xizmat qildi. Xizmat muddati nihoyasiga yetgach, hayotining oxiriga qadar Buxoroda maktabdorlik bilan mashg‘ul bo‘ldi. Nisoriy vafot etgach, Bahouddin Naqshband maqbarasiga yaqin joyda dafn etildi.

“Muzakkir-i ahbob” kirish, to‘rtta bob va xulosadan iborat. Asar tazkira janrida yozilgan bo‘lib, unda shayboniy hukmdorlar Muhammad Shayboniyxon, Ko‘chkunchixon, Abdullatifxon, Abdulazizxon, Sulton Sa‘idxon va boshqalar to‘g‘risida, shuningdek, Bobur va uning avlodlari – Humoyun, Komron, Muhammad Hindol haqida ma’lumotlar joy olgan. Asarning asosiy qismida muallif o‘zidan oldin yashagan hamda unga zamondosh bo‘lgan shoirlarning hayoti va faoliyati to‘g‘risida ma’lumotlar beradi, ularning ijodidan namunalar keltiradi.

XVI asrning oxiri - XVII asrning birinchi yarmida Buxoro va Eron munosabatlari haqidagi ma’lumotlar eronlik muarrix Iskandarbek Munshi (1561/1562-1634) qalamiga mansub “Tarix-i olamoro-yi Abbosiy” asarida uchraydi. Mazkur manbanig matni ikki marta Tehronda (1896, 1956) nashr etilgan. Ayrim sharq tarixnavislarining asarlaridan Shayboniylar va Ashtarxoniylarning qo‘shni mamlakatlar hukmdorlari bilan munosabatlari to‘g‘risida ma’lumotlar olish mumkin. Masalan, Buxoro xonligining Boburiylar davlati (Hindiston) bilan munosabatlari haqida Abulfazl Allomiy (1551-1602) qalamiga mansub “Akbarнома” (ikkinchi nomi - “Oyin-i Akbariy”) asaridan qimmatli

ma’lumotlar mavjud. Ushbu asarning fors-tojik tilidagi matni (1872-1877) va ingliz tiliga qilingan tarjimasi (1903-1921) Kalkutta shahrida nashr etilgan.

Hofiz Tanish Buxoriy (1549-1589) Buxoro xon Abdullaxon II ning shaxsiy voqeanavisi bo’lgan. Uning “Sharafnoma-yi shohiy” (ikkinchi nomi – “Abdullanoma”) nomli tarixiy asar muallifidir. Asarni yozishda muallif turli manbalardan, jumladan, Narshaxiy, Safiuddin Abubakr Abdulla Balxiy, Istaxriy, Juvayniy, Rashiduddin, Mirxond, Sharafuddin Ali Yazdiy va Mirzo Muhammad Haydar asarlaridan foydalangan[13]. XVI asrning 30-60-yillar voqealari saroy kundaliklari va voqealar ishtirokchilarining bergan og’zaki ma’lumotlari asosida yozilgan. XVI asrning 70-80-yillar davomida ro’y bergan voqealar esa muallifning o’z kuzatishlari va to’plagan materiallari asosida bayon etilgan. “Sharafnoma-yi shohiy” murakkab badiiy uslub – saj’ usulida yozilgan. Asar Movarounnahrning XVI asrdagi tarixini o’rganish uchun eng muhim manbalardan biridir. Unda siyosiy voqealar bayoni bilan bir qatorda, yer egaligi shakllari, soliq tizimi, Shayboniylar davlatining ma’muriy tuzilishi, shaharlar, Buxoro xonligining Rossiya va qo’shni mamlakatalar bilan munosabatlari to’g’risida ko’p ma’lumotlar keltiriladi.

Eronlik tarixchi Hasan Rumlu 1530 - 1531-yilda Qum shahrida safaviy harbiy boshliqlaridan birining oilasida dunyoga keldi. U o’qishni tamomlagach ham Safaviy Taxmasp xizmatiga kirdi va uning harbiy yurishlarida ishtirok etdi. Hasan Rumlu shoh saroyini quriqlash bo’limi boshlig’i lavozimida xizmat qilgan. U ko’p siyosiy voqealarni ko’zatgan va ularni 12 jilddan iborat “Ahsan at-tavorix” (“Sara tarixlar”) asarida bayon etdi. Bizgacha asarning faqat ikkita oxirgi jildi yetib keldi. Uning so’nggi jildi original bo’lib, unda 1495-1577-yillarda Eron va O’rta Osiyoda sodir bo’lgan voqealar o’z aksini topgan. Ushbu asarda xususan shoh Ismoil va Boburning Shayboniylarga qarshi birga olib borgan kurashi yaxshi tasvirlangan[9].

Shayboniylar davlatining tarixiga oid yana bir manba – bu Muhammadiy ibn Arab Qatag’onning “Musaxxir al-bilod” (“Mamlakatlarning bo’ysundirilishi”) nomli asaridir[8]. Unda Shayboniylar davlatining Abulxayrxondan to Abdulmo’minxongacha (1598) bo’lgan tarixi bayon etilgan. Muallif haqidagi ma’lumotlar ko’p emas. Asarning matnidan u XVI asrning ikkinchi yarmi va XVII asrning boshlarida Shayboniy Abdullaxon II (1583-1598) va Ashtarxoni Boqiy Muhammadxon (1601-1605) saroyida xizmat qilganligini bilib olish mumkin.

Navbatdagi manba esa Kamoluddin Binoiy qalamiga masub “Shayboniynoma” asaridir[3]. 1505-1507-yillarda Binoiy o‘zining “Shayboniynoma” nomli tarixiy asarini yozgan. Asarda Muhammad Shayboniynonning tavalludidan to uning Movarounnahr va Xurosonni zabt etishiga qadar ro‘y bergan voqealar qisqa tarzda bayon etilgan. Bundan tashqari asarda boy geografik va etnografik materiallar mavjud. Asarda Shayboniynonning amir va askarlari tomonidan sodir etilgan beboshliklar to‘g‘risidagi ma’lumotlar ham diqqatga sazovordir.

O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘ng milliy tarixni qayta anglash, o‘zbek davlatchiligi tarixida muhim o‘rin tutgan sulolalar faoliyatini mafkuraviy qoliplardan holi holda o‘rganish dolzarb ilmiy vazifaga aylandi. Ushbu jarayonda Shayboniylar davri tarixini tadqiq etish masalasi alohida ahamiyat kasb etib, u tarixshunoslikda qayta baholashni talab etuvchi murakkab va ko‘p qirrali masala sifatida maydonga chiqdi.

Shayboniylar davri mustaqillik yillarida nisbatan kam o‘rganilgan bo‘lsa-da, ayrim tarixchi olimlarning fundamental va mavzuga doir tadqiqotlari ushbu davr tarixini xolis yoritishda muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

Sobiq Sovet va mustaqillik davri tarixshunosligi o‘rtasidagi metodologik farq shundaki, sovet tarixshunosligida Shayboniylar sulolasi vakillari ko‘pincha sinfiy yondashuv va “ko‘chmanchi bosqin” nazariyasi asosida talqin etilgan. Ular Temuriylar davlatining yemirilishiga sababchi omil sifatida ko‘rsatilib, Shayboniylar davlatchiligi va uning tarixiy ildizlari yetarli darajada ochib berilmagan.

Mustaqillik yillarida esa tarixshunoslikda manbashunoslikka tayangan yondashuv, siyosiy tarix bilan bir qatorda ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilish, sulolaviy tarixni davlatchilik tarixi bilan bog‘lab o‘rganish hamda har bir davrga kreativroq yondashuv kabi yangi ilmiy mezonlar shakllandi.

Shayboniylar davrining ijtimoiy-siyosiy tarixini yoritishda Sabohat Azimjonovanning ilmiy ishlari alohida e’tiborga loyiqdir[2]. Tadqiqotchi asosan Shayboniylar va dastlabki Ashtarxoniylar davrida davlat boshqaruvi tizimi, mansab va lavozimlar instituti, mahalliy hokimiyatning shakllanishi masalalariga e’tibor qaratgan. Azimjonovanning yondashuvi Shayboniylar davlatchiligini institutsional tizim sifatida tahlil qilish bilan ahamiyatlidir.

Abdurashid Nishonovning Shayboniylar davriga oid ishlari tarixshunoslikda cheklangan hajmda bo‘lsa-da, muhim masalalarni ko‘tarib chiqqani bilan ajralib

turadi[7]. U asosan Shayboniylar davrining siyosiy voqealari, sulolaviy kurashlar, hukmdorlar faoliyati kabi masalalariga toʻxtalgan. Ushbu tadqiqot ayanan noyob jarayonlarni olib chiqqanligi va ushbu davirda Fargʻona vodiysidagi siyosiy jarayonlarni ochib berganligi bilan eʼtibor tortadi. Hamda uning ilmiy ishlari Shayboniylar tarixining ayrim muhim epizodlarini yoritishda manba sifatida inkor etib boʻlmaydigan ahamiyatga ega.

Akbar Zamonov Shayboniylar davriga bagʻishlangan tadqiqotlarida ushbu sulola tarixini asosan manbashunoslik va tarixiy geografiya nuqtayi nazaridan yoritgan. Uning ishlarida Shayboniylar davrida Movarounnahr va Xuroson hududlarida yuz bergan siyosiy jarayonlar yozma manbalar asosida tahlil qilinadi.

A.Zamonovning “Buxoro xonligi tarixi” asarida XVI asrda Movarounnahrda Shayboniylar tomonidan markazlashgan davlat tuzish jarayonidagi siyosiy jarayonlar nisbiy ravishda uch guruhga boʻlib tahlil qilingan[14]. Muallif Toshkent mulklarini boshqargan Sevinchxoʻjaxon va uning avlodlari shajarasi hamda ularning hukmronlik yillarini jadval koʻrinishida keltirib oʻtgan. Asarda Movarounnahr hududlari Abulxayrxonning toʻrt avlodi tomonidan boshqarilganligi ilmiy jihatdan tahlil qilingan.

Oʻ. Sultonovning “Toshkent mulki Shayboniylar davrida: Suyunchxoʻjaxon xonadoni boshqaruvi haqida ayrim qaydlar” maqolasida XVI asrda Fargʻona vodiysida hukmronlik qilgan Sevinchxoʻjaxon avlodlari tarixi haqida maʼlumotlar keltirilgan[10]. Muallif tarixiy manbalarga tayangan holda, Baroqxon avlodida Darveshxon davrida Amin sulton Andijonda, Doʻst Muhammad sulton Aksida hokimlik qilganligini taʼkidlaydi. Toshkent mulki Shayboniylar davlati tarkibida siyosiy-maʼmuriy jihatdan markaziy (Toshkent va Shohruhiya), sharqiy (Aksi, Andijon) va shimoliy (Turkiston, Signoʻq, Sayram) hududlarga boʻlingan. Maqolada asosiy eʼtibor Toshkentda yetmish yil hukmronlik qilgan Shayboniy sultonlarga qaratilgan va shaharda olib borilgan bunyodkorlik ishlari hamda iqtisodiy-ijtimoiy hodisalar tahlil qilingan.

Soʻnggi yillarda vaqf hujjatlarining manbaviy ahamiyatini oʻrganish bilan bogʻliq yirik tadqiqot Oʻ.A.Sultonov tomonidan amalga oshirildi. U toʻrt asr davomida Toshkentda yartilgan hujjatlarni oʻrganib, vaqflarning mintaqa ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotida tutgan oʻrnini tahlil etdi[11].

Shayboniylar davri tarixshunosligida akademik B.Ahmedovning oʻrni alohida ahamiyatga ega. Uning oʻrta asr yozma manbalari asosida yaratilgan “Tarixdan

saboqlar” nomli fundamental asarida Shayboniylar sulolasining siyosiy faoliyati chuqur ilmiy tahlil qilingan. Asarda Muhammad Shayboniynonning siyosiy maydonga kirib kelishi, Movarounnahr va Xuroson hududlarini egallash jarayoni, yangi davlat barpo etishdagi asosiy siyosiy tamoyillar, davlat boshqaruvi tizimi va amaldorlar vakolatlari, Shayboniylar sulolasining siyosiy legitimatsiyasi birlamchi manbalar asosida izchil yoritilgan. Ahmedov Shayboniylar davlatini Temuriylar davlatchiligi an’alarining mantiqiy davomi sifatida talqin etib, ularni faqatgina harbiy kuchga tayangan bosqinchi sulola sifatida baholash ilmiy haqiqatga zid ekanligini asoslab beradi[1].

R.G.Muqminova qalamiga mansub “To’rt asr oldingi Toshkent” asarida Farg’ona vodiysida yuz bergan XVI asrga oid qator tarixiy voqealar haqida ayrim ilmiy qarashlar bayon etilgan. Muallif “Tarixi Qipchoqxon” asariga tayangan holda, Shayboniynon 1503-yilda Toshkent va Farg’ona mulklarini darubast sifatida o’g’li Temur Sultonga berganligini ta’kidlaydi. Aslida esa, Farg’ona 1504-yilda Shayboniylar qo’liga to’liq o’tgan bo’lib, ushbu hudud Jonibek sultonga suyurg’ol qilib berilgan edi[6].

Shuningdek, muallif 1514-yilda Shayboniy sultoni Sevinchxo’jaxon Farg’onani Sulton Saidxondan tortib olganidan so’ng, vodiyni Muhammad Sultonga hokim etib tayinlaganini qayd etadi. Toshkent va Farg’onada Sevinchxo’jaxon avlodlarining hukmronligi vodiy Abdullaxon tasarrufiga o’tguniga qadar davom etganligi haqida ham fikr yuritilgan.

Muqminova “Musaxxir al-bilod” asariga tayangan holda, Navro’z Ahmadxon davrida Axsı va Andijon mulklarida Juvonmardali sulton hokimlik qilganligini ta’kidlaydi. Baraqxon o’z hokimiyatini mustahkamlash maqsadida diniy peshvolarni qo’llab-quvvatlagan. Xususan, farg’onalik sayyidlar avlodidan bo’lgan Fozil Aliga ko’plab imtiyozlar berilganini olimlar o’z tadqiqotida qayd etadi.

Shuningdek, Toshkent hokimi Darvishxon, Turkiston hokimi Bobo sulton, Axsı hokimi Do’st Muhammad hamda Andijon hokimi Muhammad Aminlar 1582-yilda Abdullaxonga qarshi ittifoq tuzganligi, bu kurashda qozoq sultonlarining yordamidan foydalanishga harakat qilganliklari manbalar asosida yoritilgan. Qozoq sultoni Tavakkal qalmaq va qirg’iz biylari bilan hamkorlikda Toshkent, Axsı va Andijon shaharlarini egallaganligi ham tarixiy manbalar asosida tahlil qilingan.

Maria Eva Subtelny (Kanada-AQSh ilmiy maktabi vakili) Markaziy Osiyo tarixini o’rganishda madaniy-tarixiy va intellektual yondashuvni qo’llagan yetakchi olimlardan

biridir. U siyosiy voqealarni faqat xronologik ketma-ketlikda emas, balki siyosiy legitimatsiya, madaniy uzviylik, diniy institutlar, elita transformatsiyasi kabi omillar bilan uzviy bog‘liq holda tahlil qiladi. “Turko-Persian Politics and Acculturation in Medieval Iran” asari mazkur masalani yoritishda eng ko‘p murojaat qilinadigan manba sanaladi[12].

Amerikalik tarixchi Beatrice Forbes Manz Markaziy Osiyo va Eron hududlarida XIV–XVI asrlardagi siyosiy-harbiy jarayonlar, sulolaviy davlatlar, ko‘chmanchi elitalarning hokimiyatga kelishi masalalarini o‘rganishga ixtisoslashgan[4]. U bevosita Shayboniylar sulolasi tarixiga bag‘ishlangan alohida tadqiqot olib bormagan bo‘lsa-da, uning ilmiy izlanishlari Shayboniylar davrini tushunish uchun nazariy va qiyosiy asos vazifasini bajaradi. Olimaning “Tribal Politics and the Rise of the Uzbek State” ilmiy maqolasi ham mavjud. Ushbu maqolada Manz Shayboniylar hokimiyatga kelishida qabilaviy tuzilmalarning rolini, “o‘zbek” siyosiy ittifoqining shakllanishini, Muhammad Shayboniixonning qabilalararo muvozanatni saqlash siyosatini tahlil qiladi. Manzning xulosasiga ko‘ra, Shayboniylar davlati qattiq markazlashgan monarxiya emas, balki qabilaviy-sulolaviy kelishuvlar asosida faoliyat yuritgan siyosiy tuzilma bo‘lgan.

Xulosa. Mazkur bobda Shayboniylar sulolasining Movarounnahrda, xususan Toshkent mulkida hokimiyatni qo‘lga kiritish jarayoni manbashunoslik va tarixshunoslik asosida atroflicha tahlil qilindi. XVI asr boshlarida yuz bergan siyosiy o‘zgarishlar natijasida Toshkent Shayboniylar davlati tarkibiga qo‘shilib, mintaqaviy siyosatda muhim strategik markazga aylandi.

Bobda Shayboniylar davriga oid asosiy yozma manbalar — Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma”, Mirzo Muhammad Haydarning “Tarixi Rashidiy”, Zayniddin Vosifiyning “Badoye‘ ul-vaqoe”, Hofiz Tanish Buxoriyning “Abdullanoma” kabi asarlar tahlil qilinib, ularning Toshkent tarixini yoritishdagi ahamiyati ko‘rsatib berildi. Ushbu manbalar orqali Toshkentning nafaqat harbiy-siyosiy, balki madaniy va ijtimoiy markaz sifatidagi o‘rni ham aniqlashtirildi. Shuningdek, mustaqillik davri tarixshunosligida Shayboniylar sulolasiga nisbatan yangicha, xolis yondashuv shakllangani, sovet davridagi biryoqlama talqinlar o‘rnini manbalarga tayangan ilmiy qarashlar egallayotgani asoslab berildi. Tadqiqotlar Shayboniylar davlatini Temuriylar davlatchiligi an‘analarining mantiqiy davomi sifatida baholash imkonini bermoqda.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar:

1. Ahmedov B. Tarixdan saboqlar. –T.: O’quvchi, 1994 – 429 b.
2. Azimjonova S. A. Boburning Hindiston devoni (ilmiy tadqiqot). – Toshkent: Fan, 1966. – 312 b.
3. Binoiy Kamoliddin. Shayboniynoma. – Toshkent: Fan, 1996. –288 b.
4. Manz Beatrice Forbes. The Rise and Rule of Tamerlane. – Cambridge: Cambridge University Press, 1989. – 248 p.
5. Monshi Eskandar Beg. History of Shax Shax Abbas the Great/ translate by Roger M. Savory. Volume I. - Colorada: westview Press, 1930. – P. 1361.
6. Muqminova R. To’rt asr oldingi Toshkent. –Toshkent: Fan, 2015. – 192 b.
7. Nishonov A. Shayboniylar davrida Farg’ona vodiysidagi siyosiy jarayonlar. tarix. fal. dok...diss. – Farg’ona, 2022. – 133 b.
8. Qatag’an Muhammad ibn Arab. Musaxir al-bilot. –Toshkent: Fan, 2009. – 304 b.
9. Rumlu Hasan. Ahsan at-tavorix. –Toshkent: Fan, 1989. –508 b.
10. Sultonov O‘. A. Toshkent mulki Shayboniylar davrida: Suyunchxo‘jaxon xonadoni boshqaruvi haqida ayrim qaydlar // Sharqshunoslik. – Toshkent, 2014. – B. 7–14.
11. Sultonov O‘. A. Toshkent vaqf mulklari: tarixiy hujjatlar tadqiqi va talqini (1507–1917). – Toshkent: Fan, 2021. –368 b.
12. Subtelny Maria E. Timurids in Transition: Turko-Persian Politics and Acculturation in Medieval Iran. – Leiden & Boston: Brill, 2007. – 411 p.
13. Tanish al-Buxoriy Hofiz. Abdullanoma (Sharafnomayi shohiy). –Toshkent: Fan, 1999. – 384 b.
14. Zamonov A. Buxoro xonligi tarixi. – Toshkent, 2021. – 246 b.